MAQOLALAR

СТАТЬИ ARTICLES

SHIMOLIY NUROTA TOG‘ TIZMASINING PALEOLIT DAVRI TOPILMAJOYLARI

© 2024 Baxtiyor Sayfullaev[1], Odil Ergashev[2], Aziz Imomov[1], Alisher Rajabov[1], Laziz Ungalov[2], Ro‘ziboy Abduraimov[2]

[1]Y. G‘ G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti
[2]Sh. R. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Kalit so‘zlar: Paleolit, bifas, ashel, qirg‘ich, levallua uchirindi, nukleus.

Maqola so‘nggi yillarda Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismi janubiy etaklarida joylashgan, Qo‘shrabot tumaniga qarashli Pangat va Minishkor qishloqlari hududlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalarning texnik-tipologik tadqiqotiga bag‘ishlangan. Nurota tog‘lari hududi o‘zining qulay paleoekologik sharoitlari bilan ilk paleolit davridanoq ibtidoiy odamlarning e’tiborini jalb qilib kelgan. Hududdan paleolit davrining barcha taraqqiyot bosqichlariga oid topilmajoylar aniqlandi. Yig‘ilgan arxeologik materiallar qadimgi odamlar tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlardan iborat bo‘lib, ular ishlanish texnikasi va saqlanish darajasiga ko‘ra to‘rtta kompleksga ajratildi. Ushbu artefaktlar mahalliy kremniylashgan ohaktoshlar, qumtoshlar va slaneslardan ishlangan. Birinchi kompleksga bifaslar, choppinglar, nukleuslar va levallua uchirindilar kiritildi. Bu buyumlar O‘rta Osiyo hududidan topilgan eng qadimgi materiallardan bo‘lib, ashelga oid tosh industriyalar ekanligi aniqlandi va taxminan 500–400 ming yillar bilan nisbiy sanalandi. Ikkinchi kompleks materiallari orasida ham bifaslar va choppinglar mavjud va ular ham ashelga oid deb topilib, taxminan 350–300 ming yillar bilan sanalandi. Bu yerdan topilgan uchinchi kompleks o‘rta va to‘rtinchi kompleks artefaktlari esa so‘nggi paleolit davrlariga oidligi aniqlandi. Nurota tog‘ tizmasi hududlari qadimgi tosh davri yodgorliklarini, o‘ziga xos madaniyatlarni tadqiq qilish uchun istiqbollarga ega deb topildi. Topilgan tosh qurollar asosida aytish mumkinki, hudud Afrikadan kirib kelgan xomo erektuslarning ikkinchi migratsion to‘lqini vakillari tomonidan o‘zlashtirilgan.

ПАЛЕОЛИТИЧЕСКИЕ МЕСТОНАХОЖДЕНИЯ СЕВЕРНОГО НУРАТИНСКОГО ГОРНОГО ХРЕБТА

© 2024 Бахтиёр Сайфуллаев[1], Одил Эргашев[2], Азиз Имомов[1], Алишер Ражабов[1], Лазиз Унгалов[2], Рузибой Абдураимов[2]

[1]Самаркандский институт археологии имени Я. Г. Гулямова
[2]Самаркандский государственный университет имени Ш. Р. Рашидова

Ключевые слова: Палеолит, бифас, ашель, скребло, леваллуазский отщеп, нуклеус.

Статья посвящается технико-типологическому исследованию находок древнекаменного века, обнаруженных на территории кишлаков Пангат и Минишкор Кошрабатского района в южных склонах северной части Нуратинского горного хребта. Территория Нуратинских гор со своими удобными палеоэкологическими условиями привлекала внимание первобытных популяций с эпохи раннего палеолита. В регионе выявлены местонахождения, представляющие все этапы развития древнекаменного века. Археологические материалы, состоят из каменных изделий, обработанных древними людьми, которые по технике и обработки и степени сохранности подразделяются на четыре комплекса. Артефакты изготавливались из местных кремнистых известняков, песчаников и сланцев. В первый комплекс включены бифасы, чоппинги, нуклеусы и леваллуазский отщеп. Эти изделия являются одними из древнейших

на территории Средней Азии, относящиеся к ашельским индустриям и могут быть датированы приблизительно 500–400 тысячелетием до н.э. Среди материалов второго комплекса также представлены бифасы и чопперы, которые представляют ашельскую индустрию и приблизительно датированы пределами 350–300 тыс. лет до н. э. Третий комплекс, выделенный здесь отнесен к среднему, а артефакты четвертого комплекс относятся к эпохе а позднего палеолита. Выявлены большие переспективы изучения памятников древнекаменного века, представляющих своеобразную культуру на территории северной части Нуратинского хребта. По имеющимся каменным орудиям можно констатировать, что данная территория была освоена вторым миграционным потоком хомо эректусов из Африканского континента.

Kirish

Nurota tog‘lari O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, eng baland cho‘qqisi 2169 m (Hayotboshi tog‘i) va sharqdan g‘arbga qarab Jizzax vohasidan Nurotagacha cho‘zilgan. Nurota tog‘lari shimoliy-g‘arbga tomon 180 km uzunlikka ega. O‘rtacha balandligi 1000–1500 m va paleozoyning ohaktosh, qumtosh va slaneslaridan, metamorfik jinslardan tashkil topgan. Bular orasida otqindi jins ko‘p. Nurota tog‘ tizmalarining pastroq qismlari va botiqlarida neogen va to‘rtlamchi davr yotqiziqlari ham tarqalgan. Tektonik jihatdan tizmalar megantiklinal strukturaga ega bo‘lib, gersin burmalanishida hosil bo‘lgan va hozirgi balandlikka yangi tektonik harakatlar natijasida ko‘tarilgan. Bir tomoni Qizilqum cho‘li va ikkinchi tomoni Zarafshon daryosi vodiylariga tutashgan Nurota tog‘ tizmasi hududlari ilk pleystotsen davridan boshlab odamlar yashashi uchun qulay paleoekologik sharoitlarga ega bo‘lgan. Nisbatan kam o‘rganilgan hududdan ko‘plab tosh davriga oid yodgorliklar topilgan.

Nurotaning dunyoga mashhur tosh davri yodgorliklaridan biri 1958-yilda X. Muxamedov tomonidan ochilgan Uchtut toshga ishlov berish ustaxonalari va shaxtalari bo‘lib, ular Buxoro va Samarqand viloyatlari oralig‘ida joylashgan.

1959-yilda O‘zSSR FA Tarix va arxeologiya institutining A. P. Okladnikov boshchiligidagi paleolitchilar guruhi Qoratovda qidiruv ishlarini olib borib, Uchtut va Ijont ustaxonalari hududidan, 1960-yilda esa Ya. G‘. G‘ulomov boshchiligidagi Moxondaryo guruhi “Toshqo‘ton” koni atrofidan ko‘plab tosh buyumlarni yig‘ib olgan. 1961-yilda Moxondaryo ekspeditsiyasining paleolitchilar guruhi Uchtut ustaxonasida tadqiqot ishlarini davom ettirdi. Ustaxona Zarafshonning o‘ng sohilidagi 5–6 – terrasalarda joylashgan. Oxirgi terrasa Qoratov etaklariga tutashib ketgan. Uning janubiy etaklari qattiq uchlamchi davr ohatoshlari, qumtoshli-kvarsli va qisman kremniyli hamda boshqa jinslardan tarkib topgan. Ular allyuvial-dellyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan (Касымов 1964: 12).

Bu yerdagi Qoratovning tizmalaridan bo‘lgan Vaush va Kalavash-Qizil tog‘larining janubiy adirliklari asta-sekin pasayib borib, Zarafshon vodiysiga tutashib ketadi. Vaush tog‘ining janubiy adirliklarida, Chaqmoqtepa va Uchtut qishloqlari oralig‘ida uzunligi 3000–4000 m va eni 200–300 m, shuningdek “Toshqo‘ton” kareri atroflaridan turli xil kremniylardan ishlangan ko‘plab tosh buyumlar terib olingan. Tosh buyumlar Vaush tog‘i adirliklarida ham ko‘plab uchraydi (Касымов 1961: 254). Artefaktlar asosan, Vaush tog‘ining janubiy adirlarida, Xontaxti darasiga kirish joyida va Kavobi qishlog‘idan shimolda 1 km masofada konsentratsiyalashgan (Касымов 1964: 13).

1961-yildan Uchtut ustaxonasi hududida statsionar qazishmalar boshlangan. Natijada qazishmalardan ko‘plab tosh buyumlar: ushatg‘ichlar, sandonlar, nukleuslar, plastinkalar, ishlab chiqarish chiqitlaridan tashqari, nahang tishlari, hayvon suyaklari va shoxlarining siniqlari topilgan (Касымов 1965: 32). Yodgorlikda gulxan izlari aniqlangan, biroq o‘choqlar topilmagan. Qazishmalar tubida kremniy qoyalar va ulardan tosh sindirib olingan izlar (qizg‘ish kremniy) ko‘zga tashlanadi (Касымов 1972: 36).

Uchtut ustaxonasini qazish jarayonida neolit davriga oid kremniy qazib olishga mo‘ljallangan shaxtalar (35 ta) aniqlangan. Bunday shaxtalar noyob topilma bo‘lib, SNG davlatlari hududida faqat Belorussiyadangina topilgan (Гурина 1965: 52; 1976: 8).

1963-yildan boshlab Ijont ustaxonasida tadqiqotlar olib borilgan. Yig‘ilgan materiallar o‘rta paleolit davri bilan sanalangan (Дадабаев 1965: 40).

Qator yillar davomida (1957–1961; 1963–1964; 1966–1967 yy.) Uchtut, Ijont va Vaush ustaxonalaridan va shaxtalardan 94 000 ga yaqin tosh buyumlar yig‘ib olingan. Bu buyumlar ushbu yodgorliklarning sanasi va toshga ishlov berish texnikasi haqida to‘liq tasavvur bera oladi (Касымов 1961: 261; 1972: 37).

Yig‘ilgan materiallar so‘nggi ashel, muste, so‘nggi paleolit va so‘nggi neolit davrlari bilan sanalangan (Касымов 1964: 15–16; Касымов 1965: 30). Biroq keyingi tadqiqotlar Uchtutda ashel va so‘nggi paleolitga oid materiallar uchramasligini, bu yerdagi ustaxonalardan yig‘ilgan artefaktlar o‘rta paleolit — neolit hamda shaxtalardan qazib olingan tosh buyumlar esa faqat neolit davriga tegishligini aniqladi.

Nurota tog‘ tizmasining tosh davriga oid topilmalar 2012-yilda ham qayd etildi. 2012-yilning bahorida O‘zR FA Arxeologiya instituti va SamDU Arxeologiya kafedrasining paleolitchilar guruhi Jizzax viloyatining Forish tumani hududlarida dala-qidiruv ishlari olib bordi va bu yerdan bir qator yangi punktlar (Yangiqishloq, Azimbuloq, Go‘rdara, Chashmai-Doston) topib o‘rganildi (Sayfullayev va boshq. 2012: 189).

2013-yilda Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qismida Poshshot paleolit topilmajoyi ham ochib o‘rganilgan. Yodgorlik Nurota tumani markazidan 12–14 km shimoliy-g‘arbdagi tog‘ etaklarida joylashgan. Bu yerdagi buloq hovuzining bugungi kundagi hajmi 20 x 10 m. Topilmajoyning madaniy yotqiziqlari shu yerdagi antik davrga oid qal’a qurilishi ishlari tufayli buzilgan. Yodgorlikda 50 x 100 m maydondan o‘rta-so‘nggi paleolit davrlariga oid o‘nlab tosh buyumlar



1-rasm. Shimoliy Nurota tog‘ tizmasidan topilgan paleolit davri topilmajoylari xaritasi
Рис. 1. Карта палеолитических местонахождений найденных в северной части Нуратинского хребта
Fig. 1. Map of Paleolithic Sites Discovered in the Northern Nurata Mountain Range

yig‘ib olingan. Ushbu tosh buyumlarni yasash uchun xomashyo Uchtut ustaxonasidan keltirilganligi aniqlangan (Сулейманов 2016: 302).

2023-yil may-iyun oylarida Madaniy meros agentligi Ya. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti xodimlari Nurota tog‘ tizmasida joylashgan Jizzax viloyati G‘allaorol va Forish tumanlarida dala-qidiruv ishlarni amalga oshirdi. Natijada, G‘allaorol tumani O‘gat qishlog‘idan o‘rta paleolit davriga oid ustaxona aniqlandi (Pardayev va boshq. 2023: 58).



2-rasm. Yuraksimon bifas
Рис. 2. Сердцевидный бифас
Fig. 2. Heart-shaped Biface



3-rasm. Gardishsimon bifas
Рис. 3. Дисковидный бифас
Fig. 3. Disk-shaped Biface



4-rasm. Gardishsimon bifas
Рис. 4. Дисковидный бифас
Fig. 4. Disk-shaped Biface

Metodlar

Samarqand arxeo-logiya instituti va Samarqand davlat universiteti paleolitchilar guruhi tomonidan Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining janubiy etaklaridagi Qo‘shrabot tumani hududida joylashgan Qoratovning janubiy adirliklarida, asosan Pangat va Minishkor qishloqlarida so‘nggi o‘tgan yillarda olib borilgan dala-tadqiqot ishlari natijasida bir qator yangi topilmajoylar aniqlandi (1-rasm). Yig‘ilgan arxeologik ashyolar qadimgi odamlar tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlardan tarkib topgan. Tosh ashyolarini tadqiq qilishda M. Breziyon tomonidan ishlab chiqilgan “texnik-tipologik” (Brezillon 1971: 127–272), J. Peligrinning “Toshlarni chaqmoqlashning texnologik” (Pelegrin 2000: 73–86) hamda D. A. Timofeevning “mexanik eroziya yoki fizik ta’sirlar” (Timofeev 1978: 271) kabi usullaridan foydalanildi.

Materiallar

Saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko‘ra topilgan materiallar 4 ta kompleksga ajratildi.

1-kompleks. Ushbu kompleksga 5 ta tosh artefakt kiritildi. Ularning uchalasi ham mahalliy va turli darajada kremniylashgan ohaktoshlardan ishlangan bo‘lib, qalin sarg‘ish patina bilan qoplangan. Kompleks artefaktlaridan biri yuraksimon bifas bo‘lib, hajmi 120 x 110 x 41 mm. Qurol bifasial yo‘nishlar yordamida qisman ishlov berilgan va qirralari qo‘shimcha retushlanmagan, balki kichik yo‘nishlar yordamida tekislangan (2-rasm). Navbatdagi ikkala buyum ham bifaslar bo‘lib, ularning shakli gardishsimon va hajmlari 98 x 84 x 31 mm – 103 x 95 x 30 mm (3–4-rasmlar). Ushbu gardishsimon bifaslardan biri ikki xil patinalashgan. Uning yuzalaridan biridagi yo‘nilg‘i negativlarining saqlanish darajasi birinchi kompleksga xos bo‘lsa, ikkinchi yuzasidagi negativ



5-rasm. Chopping
Рис. 5. Чоппинг
Fig. 5. Chopping



6-rasm. Levallua uchirindi
Рис. 6. Отщеп леваллуа
Fig. 6. Levallois Flake



7-rasm. Ko‘p zarb maydonli nukleus
Рис. 7. Многоударный нуклеус
Fig. 7. Multi-platform Nucleus

izlari nisbatan yorqinroq. Biroq bu yuzada bir dona qadimgi negativ izi ham saqlanib qolgan. Har ikkala gardishsimon bifaslarning ish qirralari retushlash emas, balki kichik bifasial yo‘nishlar yordamida tekislangan. Shakllari yumaloq, ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqqan. Kolleksiyaning bifaslari tosh plitkalar va yirik uchirindilardan ishlangan.

To‘plamda bir dona chopping mavjud bo‘lib, u ham bifaslar singari sarg‘ish patinali krem-niylashgan ohaktosh galkadan ishlangan va hajmi 94 x 86 x 40 mm. Qurolning ish qirrasi bifasial yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan va shakli zigzagsimon (5-rasm). Biroq ushbu qurol ham ikki xil patinaga ega. Dastlabki bosqichda u chopper bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq, keyingi bosqichda ikkinchi yuzadan yo‘nishlar yordamida choppingga aylantirilgan. Negaki, buyumning bir yuzasidagi yo‘nilg‘i negativlari ikkinchi yuzasidagilarga nisbatan kamroq patinizatsiyalashgan. Qurolning ish qirralari zigzagsimon.

Kolleksiyada bir dona levallua uchirindi aniqlangan bo‘lib, hajmi 74 x 50 x 19 mm. Uchirindining zarb maydonchasi tekis va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan. Uchirindining profili biroz qayrilgan, dorsalidagi yo‘nilg‘i negativlari radial markazga intiluvchan xarakterga ega (6-rasm).

Shunday qilib, birinchi kompleksda saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko‘ra yuraksimon, disksimon bifaslardan tashqari, bittadan chopping va levallua uchirindi ham aniqlandi. Disksimon bifaslardan biri va to‘plamdagi yagona chopping ikki xilda patinizatsiyalashgan. Bu holat ushbu materiallarning turli davrlarda hukm surgan etalon yodgorlikdan kelib qolganligidan dalolat beradi. Ushbu materiallar yuqorida ta’kidlaganimizdek, ikkinchi to‘lqin migratsiya natijasi bo‘lib, mahalliy birinchi to‘lqinning galkali qurollari bilan aralashgan. Kolleksiyada bifaslar bilan birga levallua

texnikasining uchrashi kompleksni ashelga xos industriyalar qatoriga kiritish imkonini beradi. Analogik materiallar kam sonli bo‘lishiga qaramasdan, ushbu kompleks Yevrosiyoning ikkinchi migratsion to‘lqiniga xos ashelga oid industriyalari bilan qiyoslanishi mumkin. Kompleksdagi qurollarning yirikligi va saqlanish darajasidan tashqari, qadimgi ashelga oid industriyalar qirralarining qo‘shimcha retushlar emas, balki kichik yo‘nishlar yordamida tekislan-ganligi Yevrosiyoning ikkinchi to‘l-qin migrantlari bilan bog‘lab turadi. Davriy jihatdan qiyosiy tahlillarga ko‘ra ushbu to‘plamga o‘xshash industriyalar Yevrosiyoda bundan taxminan 500–400 ming yillar muqaddam keng tarqalgan.



8-rasm. Yuraksimon bifas
Рис. 8. Сердцевидный бифас
Fig. 8. Heart-shaped Biface

2-kompleks. Ushbu kompleksdan ham beshta artefakt aniqlandi. Ular orasida 1 ta nukleus, 2 ta bifas, bittadan chopper va kliverlar uchraydi. Ushbu kolleksiyaning tosh buyumlari ham mahalliy kremniylashgan oxaktoshlardan ishlangan. Ular birinchi kompleks artefaktlaridan nisbatan kamroq patinizatsiyalashganligi (sarg‘ish-kulrangli patina bilan qoplanganligi) va yo‘nilg‘i negativlarining nisbatan yorqinroq aks etganligi bilan ajralib turadi. Biroq ishlanish texnikasi birinchi kompleks tosh buyumlariga o‘xshash. To‘plamning yagona ko‘p zarb maydonli nukleusining hajmi 147 x 74 x 58 mm va undan yirik hajmli uchirindilar sistemasiz ravishda chaqmoqlab olingan (qirradan chaqmoqlash). O‘zakning yuzalarida teginilmagan galkali qobiqning katta qismi saqlanib qolgan (7-rasm). Kolleksiyaning bifaslaridan biri yuraksimon bo‘lib, hajmi 120 x 130 x 44 mm. U yirik bifasial yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan, ish qirralari esa kichik epizodik yo‘nishlar yordamida qo‘shimcha tekislangan. Ko‘ndalang kesmada bir taraflama bo‘rtib chiqqan va ish qirralari zigzagsimon (8-rasm). To‘plamning navbatdagi bifasi ham yuraksimon shaklli bo‘lib, birinchisiga nisbatan kichikroq hajmga ega — 95 x 88 x 35 mm. Uning ish yuzalari bir tarafdan to‘liq, ikkinchi tarafdan esa qisman yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan, ya’ni yuzalaridan birida tabiiy galkali qobig‘i qoldiqlarining katta qismini saqlab qolgan. Ish qirralari epizodik, yupqa va kichik yo‘nishlar yordamida qo‘shimcha ishlov berilgan. Ushbu bifasning xarakterli xususiyati uning uch qismining bir taraflama tik yo‘nishlar yordamida sindirib olinganligidadir. Ko‘ndalang kesmada qurol bir taraflama bo‘rtib chiqqan (9-rasm).

Kompleksda kremniylashgan ohaktoshli uzunchoq va yupqa galkadan ishlangan kliver (clevers — tosh bolta) ham uchraydi va uning hajmi 112 x 72 x 17 mm. Boltaning ish qirrasi galkaning ensiz ko‘ndalang tomonlaridan birida kichik bifasial yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan. Yon qirralari esa epizodik, yupqa va bifasial kichik yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan (10-rasm).

Kolleksiyada bir dona chopper mavjud bo‘lib, hajmi 120 x 107 x 37 mm. U kremniylashgan ohaktosh galkadan ishlangan. Qurolning ish qirrasi bir taraflama o‘rta hajmli yo‘nishlar va epizodik yupqa retushlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirrasining shakli bo‘rtib chiqqan va galkaning orqa tarafi to‘liq qalin ohakli qoplama bilan qoplangan (11-rasm).

Shunday qilib, Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining janubiy etaklaridan shubhasiz, ilk paleolitning ashelga oid ikkinchi kompleksi aniqlandi. To‘plamda uchraydigan yuraksimon bifaslar, kliver va chopperlar birinchi kompleks materiallaridan kamroq patinaga uchraganligi va yo‘nilg‘i negativlarining nisbatan yorqinroq ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Ta’kidlangan, birinchi kompleks materiallari orasida ayrim ikki xil patinali (double patinisation), ya’ni ikkinchi kompleks davrida qayta ishlov berilganlik izlari uchraydi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, har ikkala



9-rasm. Yuraksimon bifas
Рис. 9. Сердцевидный бифас
Fig. 9. Heart-shaped biface



10-rasm. Kliver
Рис. 10. Кливер
Fig. 10. Cleaver



11-rasm. Chopper
Рис. 11. Чоппер
Fig. 11. Chopper



12-rasm. Nukleus
Рис. 12. Нуклеус
Fig. 12. Nucleus

komplekslar yagona yodgorlikni, biroq xronologik jihatdan turli davrlarni o‘zida aks ettiradi. Bundan tashqari, birinchi va ikkinchi kompleks materiallari texnik-tipologik jihatdan o‘xshash. Ikkinchi kompleks materiallari ham Yevrosiyoning ochiq tipdagi bifasli industriyalari bilan qiyoslanishi mumkin. Analogiyalar va saqlanish darajasiga ko‘ra ushbu to‘plamning materiallari Yevrosiyoda taxminan 350–300 ming yillar, ya’ni so‘nggi ashel davrida keng tarqalgan.

3-kompleks. Ushbu kompleksga 4 ta nukleus, 2 ta uchirindi va 3 ta tosh qurollar kiritildi. Saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko‘ra uchinchi kompleks o‘rta paleolitga oid deb topildi. To‘plamda bifaslar va chopquvchi qurollar umuman uchramaydi. Kolleksiyaning artefaktlari asosan mahalliy qumtosh hamda kremniylashgan ohaktoshlardan ishlangan va sarg‘ish-kulrangli muste davriga xos patina bilan qoplangan. To‘plamning eng yirik o‘zagi bir zarb maydonli bo‘lib, hajmi 125 x 77 x 45 mm. U yirik uchirindidan ishlangan. Uchirindining keng zarb maydonchasi qo‘shimcha tekislashlar yordamida nukleusning zarb may-doniga aylantirilgan va ushbu may-dondan bir yo‘nalishda yirik va kichik hajmli uchirindilar chaqmoqlab olin-gan. Biroq bu yo‘nilg‘i negativlari nukleusning pastki uchiga yetmasdan sinib qolgan. O‘zakning orqa tarafi uchirindining ventral yuzasini (qorin qismi – bryushkovaya storona) saqlab qolgan. Nukleusning ish yuzasida galkali qobiq va ohakli qoplamasining katta qismi saqlangan (12-rasm). Kompleksning navbatdagi o‘zagi levallua tipidagi haddan tashqari ishlov berilgan qoldiq nukleus bo‘lib, hajmi 75 x 56 x 30 mm. U kremniylashgan slanesdan ishlangan va sariq rangli patina bilan qoplangan. Nukleusning ish yuzasi asimmetrik radial markazga intiluvchi yo‘nilg‘i negativlari bilan qoplangan, zarb maydoni fasetkalashtirilgan va orqa tarafiga biroz qiyalashgan. Biroq so‘nggi bosqichda undan levallua uchirindi

ekstraksiya qilinmagan. Shakli noto‘g‘ri to‘rtburchaksimon (13-rasm). To‘plamda bir dona prizmatik nukleusning proksimal fragmenti mavjud, hajmi 85 x 36 x 34 mm. Uning zarb maydoni fasetkalashtirilgan va orqa tarafiga o‘ta qiyalashgan. Nukleusdan uzunchoq proporsiyali va subparallel ravishda plastinalar chaqmoqlab olingan, hajmi 83x31x31 mm (14-rasm). To‘plamda bir dona nukleussimon bo‘lak ham aniqlangan (15-rasm), u kremniylashgan ohaktoshdan ishlangan va hajmi 50x38x30 mm. Kolleksiyada bir dona yirik qumtosh uchirindidan ishlangan yonlama tishsimon qurol aniqlandi, hajmi 91 x 62 x 33 mm. Qurolning ish qirrasi bifasial yo‘nishlar va retushlar yordamida ishlov berilgan. Uchirindining zarb maydonchasi fasetkalashtirilgan tekis, dorsalidagi yo‘nilg‘i negativlari perpendikulyar xarakterga ega. Qurolning zigzagsimon ish qirrasi uchirindining o‘ng lateralida shakllantirilgan (16-rasm). To‘plamda 2 ta iskanasimon qurol ham aniqlangan bo‘lib, ularning har ikkalasi ham qumtoshlardan ishlangan (60 x 62 x 21 mm va 67 x 60 x 22 mm). Iskanasimon qurollardan biri birlamchi uchirindining ko‘ndalang proksimalida ventraliga yo‘naltirilgan kichik, qiya yo‘nishlar yordamida shakllantirilgan va ish qirrasining shakli bo‘rtik. Uchirindining chap laterali dorsalga yo‘naltirilgan yarim tik va kichik yo‘nilg‘ilar izlariga ega (17-rasm). Ikkinchi iskanasimon qurol zarb maydonchasi atayin kesilgan uchirindining ko‘ndalang distalida bifasial retushlar yordamida shakllantirilgan va ish qirrasining shakli bo‘rtik. Uchirindining dorsalidagi (yelkasidagi — spinka) yo‘nilg‘i negativlari perpendikulyar xarakterga ega (18-rasm). Bunday tosh qurollar Samarqand hududi o‘rta paleolit davri komplekslari uchun xos. Kompleksda shuningdek 2 ta uchirindi ham aniqlangan bo‘lib, ulardan biri parallel levallua xarakteriga ega (19-rasm) va bunday buyumlar O‘rta Zarafshon vohasi o‘rta paleolit davri komplekslarida keng tarqalgan.



13-rasm. Nukleus
Рис. 13. Нуклеус
Fig. 13. Nucleus

Shunday qilib, Shimoliy Nurota tog‘ tizmasiga qarashli Qoratovning janubiy etaklaridan topilgan 3-kompleksning tosh buyumlari saqlanish darajasi va ishlanish texnikasiga ko‘ra o‘rta paleolit davrini xarakterlaydi. Ushbu artefaktlar avvalgi 2 ta komplekslardagidek chuqur patinaga ega emas. Bundan tashqari, 3-kompleksda bifaslar va chopquvchi qurollar umuman uchramaydi. Levallua texnikasi hamda iskanasimon, tishsimon qurollarning mavjudligi ushbu kompleksni O‘rta Zarafshon vohasining o‘rta paleolit davri yodgorliklari tosh industriyalariga yaqinlashtiradi. Xronologik jihatdan mazkur kompleks so‘nggi pleystotsen davrining o‘rtalarini xarakterlaydi.

4-kompleks. Shimoliy Nurota tog‘ tizmasi, Minishkor qishlog‘i Og‘ala darasining o‘ng sohilidan qadimgi g‘or aniqlandi. Bu g‘or xalq tilida Rustamkamar, deb nomlanib kelgan. G‘orning kirish



14-rasm. Prizmasimon nukleus
Рис. 14. Призматический нуклеус
Fig. 14. Prismatic Nucleus



15-rasm. Nukleussimon bo‘lak
Рис. 15. Нуклеусообразный кусок
Fig. 15. Core-like Piece



16-rasm. Uchirindi
Рис. 16. Отщеп.
Fig. 16. Flake.

qismi g‘arbga qaragan. Biroq u kuchli tektonik harakatlar tufayli qulab, yuvilib ketgan. Shu atrofda Moykamar, Sharshara, Hayotlik, Kaptarkamar, Temirqo‘rg‘on kabi g‘orlar joylashgan.

Shimoliy Nurota tog‘ tizmasi Qoratov hududidan aniqlangan 4-kompleks Moykamar atrofidan topilgan bo‘lib, so‘nggi paleolit davriga oid. Ushbu materiallar 6 ta tosh artefaktlardan iborat. Bu buyumlardan biri dejete tipidagi konvergent qirg‘ich bo‘lib, qora rangli mayda qumli qumtosh uchirindidan ishlangan va hajmi 84 x 54 x 20 mm. Bu buyum kompozit qurol bo‘lib, uchirindining chap laterali (yon qirrasi) va proksimali (zarb maydoncha tomoni) hamda o‘ng laterali uning medialigacha ventralga yo‘naltirilgan botiq yo‘nishlar yordamida yupqalashtirilgan. Qirg‘ich qirralari uchirindi chap lateralining distalida va ko‘ndalang distalida (zarb maydonchaga qarama-qarshi ko‘ndalang tomoni) shakllantirilgan. Ish qirralarining shakli bo‘rtik. Uchirindining dorsalidagi yo‘nilg‘i negativlari perpendikulyar xarakterga ega (20-rasm).

Moykamar g‘oridan topilgan ikkinchi buyum bilateral qirg‘ich bo‘lib, qumtoshdan ishlangan va hajmi 110 x 48 x 5 mm. Qirg‘ich plastinadan ishlangan va qirralari bifasial tangasimon va ordinar retushlar yordamida shakllantirilgan. Ish qirralarining shakli bo‘rtik. Plastinaning proksimali ventral tarafdan yupqalashtirilgan (21-rasm). Topilmalar orasida 2 ta uchirindi fragmentlari ham bo‘lib, ular kremniylashgan ohaktoshlardan ishlangan. Moykamar g‘oridan topilgan tosh buyumlar Zarafshon vohasi so‘nggi paleolitga oid komplekslarning materiallariga o‘xshash.

Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlarida Minishkor va Pangat qishloqlari oralig‘ida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari tufayli O‘zbekiston hududida ilk marotaba paleolit davrining turli bosqichlariga oid materiallar aniqlandi. Aytish mumkinki, Nurota tog‘lari butun paleolit davrida deyarli uzluksiz istiqomat qilingan bo‘lgan.

Muhokama

Pleystotsen davrida O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bo‘lgani kabi, Shimoliy Nurota tog‘larining ham landshafti hozirgiga nisbatan nam, sersuv va fauna-floraga boy bo‘lgan, deyish mumkin. Bunga bu yerda uchraydigan to‘rtlamchi davr yotqiziqlari, ishlov berishga yaroqli tosh jinslari va hududning qulay paleogeorafik (bir tomoni ochiq Qizilqum cho‘li, ko‘llar, buloqlar, soylar va h.k.) joylashganligi guvohlik beradi. Nurota tog‘larining bunday qulay sharoitlari insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridanoq ajdodlarimizning e’tiborini tortib kelgan. So‘nggi yillarda hududdan paleolit davrining o‘ta qadimiy va o‘ziga xos tosh buyumlarga ega yangi topilmajoylari aniqlandi.



17-rasm. Iskanasimon qurol
Рис. 17. Долотовидные орудия
Fig. 17. Splintered Pieces



18-rasm. Iskanasimon qurol
Рис. 18. Долотовидные орудия
Fig. 18. Splintered Pieces



19-rasm. Parallel levallua
Рис. 19. Параллельная леваллуа
Fig. 19. Parallel Levallois.

Bundan 1,8–2,0 mln yillar muqaddam zamonaviy odamning uzoq o‘tmishdoshi – tik yuruvchi odam — *Homo erectus* yoki unga yaqinroq baquvvat odam — *Homo ergaster* Afrikadan chiqib, Yevrosiyoni egallay boshladi. Bu birinchi Buyuk ko‘chishning — yuz minglab yillarni qamrab olgan, uzoq va asta-sekin davom etgan jarayonning boshlanishi edi. Bu jarayonlar qazilma odamlar qoldiqlari va tipik arxaik tosh industriyalarda kuzatiladi (Derevyanko, Shunkov 2015: 41).

Qadimgi gominidlarning birinchi migratsion oqimi asosan ikkita — shimoliy va sharqiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Birinchi yo‘nalish Yaqin Sharq va Eron tog‘laridan Kavkazga (va ehtimol, Kichik Osiyoga), so‘ngra Yevropaga amalga oshirilgan. Bu haqda 1,7–1,6 hamda 1,2–1,1 mln yillar bilan sanalangan Dmanissi (Gruziya) va Atapuerka (Ispaniya) kabi eng qadimgi paleolit davri topilmajoylari guvohlik beradi.

Sharqiy yo‘nalishda odam yashaganligi haqidagi eng qadimgi guvohliklar — 1,65–1,35 mln yillarga oid Janubiy Araviya g‘orlaridan topilgan galkali qurollar hisoblanadi. So‘ngra sharqqa qarab eng qadimgi odamlar ikkita: shimoliy yo‘l Markaziy Osiyoga, janubiy yo‘l — hozirgi Pokiston va Hindiston orqali Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoga yo‘nalgan bo‘lgan. Pokistondagi (1,9 mln yil) va Xitoydagi (1,8–1,5 mln yil) galkali qurollar, shuningdek Indoneziyadagi antropologik (1,8–1,6 mln yil) topilmalar Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoni qadimgi odamlar bundan 1,5 mln yillargacha egallab bo‘lganligidan dalolat beradi. Markaziy va Shimoliy Osiyoning



20-rasm. Konvergent qirg‘ich
Рис. 20. Скребло конвергентное
Fig. 20. Convergent Scraper



21-rasm. Kompozit qurol
Рис. 21. Композитное орудие
Fig. 21. Composite Tool

chegarasida joylashgan Janubiy Sibirdagi Oltoy o‘lkasidan ilk paleolitga oid Qarama makoni topilgan (600–800 ming yillar).

Birinchi migrantlar tomonidan qoldirilgan Yevrosiyoning barcha eng qadimgi yodgorliklarida eng arxaik — olduvoy industriyasiga xos bo‘lgan galkali qurolar (chopper, choppinglar) topilgan. Taxminan shu davrda yoki biroz kechroq Afrikadan Yevrosiyoga boshqa bir gominidlar — “mikrolitsimon” tosh industriyalar (hajmi 5 sm dan oshmaydigan industriyali) sohiblari oqimi sodir bo‘lgan va ular ham ajdodlari yurgan yo‘llar orqali Yevrosiyoga tashrif buyurganlar. Ushbu toshga ishlov berishning ikki texnologik an’analari ibtidoiy odamning tosh qurollar yasash faoliyatining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Afrikadan migrantlarning ikkinchi Buyuk ko‘chishi Yaqin Sharqqa qarab bundan 1,5 mln yillar muqaddam sodir bo‘lgan. Yangi migrantlar aftidan, Geydelberg tipidagi (*homo Heidelbergian*) — o‘zida ham neandertal va ham sapient belgilariga ega bo‘lgan odamning yangi turi bo‘lishgan. Ushbu “yangi afrikaliklar”ni toshlarni chaqmoqlashning ancha takomillashgan levallua usulidagi texnologiyalari va bifasial ishlov berilgan tosh qurollari orqali ajratib olishimiz mumkin. Sharqqa yurar ekan, ushbu migratsion to‘lqin vakillari ko‘pgina hududlarda birinchi to‘lqin gominidlari bilan uchrashgan va bu aralash industrial an’analarning – galkali va ashelga xos (bifaslar, kliverlar, levallua texnologiyalari) industriyalarining birga uchrashida namoyon bo‘ladi (Деревянко 2014: 352).

Bundan 600 ming yillar muqaddam ashelga xos industriyali aholi vakillari Afrikadan Yevropagacha kirib borganlar va keyinchalik bu yerda ulardan – zamonaviy odamlarga ancha yaqinlashgan neandertallar shakllandi. Bundan taxminan 450–350 ming yillar muqaddam ashel ananalari Yevrosiyoning sharqiga, Hindiston va Markaziy Mo‘g‘ulistongacha kirib borganlar. Ammo bu madaniyat Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyogacha yetib bormagan (Деревянко 2009: 12).

Shimoliy Nurota tog‘ tizmasi paleolit davri materiallariga analogiya sifatida aytish mumkinki, ushbu topilmalar Yevrosiyoning ochiq tipdagi ilk paleolitning asheliga oid barcha topilmajoylari bilan qiyoslanishi mumkin.

1950-yillarda X. Movius tomonidan ilk paleolit davrida ikkita yirik madaniy-tarixiy viloyat: birinchisi chopperlar va choppinglarga ega chopquvchi qurollarli — Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoda, ikkinchisi, qo‘l boltali yoki qo‘l cho‘qmorli (bifasli) — Yevrosiyoning boshqa hududlarida hukm surganligi haqidagi nazariya ilgari surilgan edi (Movius, 1958: 354). So‘nggi o‘tgan 60 yil mobaynida Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda yuzlab yangi paleolit davri topilmajoylari

aniqlandikim, Yevrosiyoning sharqiy qismi industriyalariga yangicha baho berish imkoni tug‘ildi. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda chopper va choppinglar qatorida bifasial qurollarning ham hukm surganligi haqida shubhasiz, dalillar aniqlandi (Деревянко 2014: 116). Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda bifaslar 1 mln yildan qadimiyroq bo‘lib, konvergent tarzda paydo bo‘lgan (Деревянко 2014: 117).

Ta’kidlash muhimki, Yevrosiyoda 500-400 ming yilliklarga oid ashel industriyalari bifaslar, kliverlar va levallua chaqmoqlash texnikasi bilan xarakterlanadi hamda ushbu uchta tashxizlovchi elementlar turli komplekslarda turlicha miqdorda uchraydi (Деревянко 2014: 16–17). Tilga olingan har uchala tashxizlovchi elementlar Shimoliy Nurota topilmalari orasida ham aniqlandi (1–2-kompleks materiallari).

Janubiy Araviyaning Mashxad yodgorliklari quruq suv havzasi bo‘yida joylashgan. Shuningdek yodgorlikning bifaslari orasida yuraksimonlari ko‘pchilikni tashkil qilib, qo‘ndoqsiz va kichik yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan (Амирханов 2006: 600; Деревянко 2014: 26). Mashxad makoni termolyuminessent usuli yordamida 450±110 ming yillar bilan sanalangan (Амирханов 2006: 132). Tilga olingan texnik-tipologik belgilar Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining birinchi va ikkinchi kompleksi materiallarida ham kuzatiladi.

Janubiy Araviya va Yaqin Sharqning ashelga oid topilmajoylari inventarlari o‘rtasida yagona o‘xshashlik bu ularning har ikkalasida ham bifaslarning mavjudligidadir. Ammo Yaqin Sharqda bifaslar asosan uchirindilardan, Janubiy Araviyada esa tosh g‘o‘lalar yoki yirik bo‘laklardan ishlangan. Janubiy Araviyada bifaslar yirik va mayda yo‘nishlar yordamida ishlov berilgan hamda ish qirralari deyarli hech qachon retushlar yordamida tekislanmagan. Janubiy Araviyada klassik levallua texnikasi qayd etilmagan, Gesher Benot Yakovda (Yaqin Sharq) esa eng qadimgi levallua texnikasi aniqlangan va u keyinchalik butun ashelga oid makonlarda ustunlikka erishgan. Tilga olingan fikrlar Janubiy Araviya ashelini Yaqin Sharqnikidan ajratib turadi (Деревянко 2014: 28). Janubiy Araviya bifaslari uchun bir taraflama bo‘rtib chiqqanlik xarakterli.

Akkulturatsiya jarayonlari Qirg‘iziston hududida ham kuzatiladi. Bu yerda eng qadimgi stratigrafiyalashgan yodgorlik Selung‘ur g‘or makoni hisoblanadi. Yodgorlik industriyasi birlamchi va ikkilamchi ishlov berishda galkali an’anaga ega. Uning quyi qatlamlarida kliverlar, qo‘l cho‘qmorlari va limaslar ko‘p uchraydi (Исламов 1995: 200). Geoxronologik, faunistik va palinologik ma’lumotlarga ko‘ra Selung‘ur makoni o‘rta pleystotsen davriga oid (Величко 1990: 78). Qirg‘izistonga yangi migratsion to‘lqin, aftidan, 350–300 ming yillar avval kirib kelgan (Деревянко 2014: 109).

A. P. Derevyankoning fikricha, Markaziy Osiyoning paleolitga oid bifasli industriyalarining barchasi birlamchi chaqmoqlashda levallua sistemasining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bifasli industriyali topilmajoylar ko‘proq Qozog‘istondan topilgan. Turkmaniston, Mo‘g‘uliston va O‘zbekistonda ular yakkam-dukkam. Bu topilmajoylarda kliverlar topilmagan, bifasial ishlangan buyumlar kam sonli va ayrim topilmajoylarda ular onda-sonda uchraydi. Bifasial ishlov berilgan buyumlar texnik-tipologik xarakteristikasiga ko‘ra ham gomogen birlikni tashkil etmaydi. Shu munosobat bilan bizda Markaziy Osiyoda ashel madaniyati tarqalgan deyishga asos yo‘q. Ochig‘ini aytganda, bu o‘lkaga qo‘shni hududlardan ashel industriyalarining migratsiya qilish orqali tarqalgan deyish uchun faktik materiallar kamlik qiladi. Umuman, Markaziy Osiyoni ashel industriyalari keng tarqalgan hududlarga kiritish mumkin emas (Деревянко 2014: 115).

Xitoy hududidagi Lantyan va Kexe tipidagi ilk paleolit davri industriyalarida birlamchi chaqmoqlash tizimi shakllangan va unda uchta usul ko‘zga tashlanadi: og‘ir ushatg‘ich yordamida zarb berish, bipolyar va sandonga urib sindirish. Xitoyning ilk paleolitga oid topilmajoylarida tayyorlangan zarb maydonli nukleuslar deyarli uchramaydi. Uchirindilar nukleuslarning galkali yuzasidan chaqmoqlangan. Agar “qirradan” chaqmoqlash, ya’ni zarb maydon vazifasini o‘zidan

avvalgi yo‘nilg‘i negativi o‘tagan hollarda zarb maydon galka qobiqsiz bo‘lgan. Nukleuslari asosan, galka qobiqli, turli shaklli va ulardan kam sonli uchirindilar chaqmoqlab olingan. Nukleuslari orasida kam sonli gardishsimon va poliedr shaklidagilari uchraydi. Tipiga va eng muhimi, ishlanish texnikasiga ko‘ra Xitoy paleoliti nukleuslari Yevrosiyoning g‘arbiy rayonlaridagidan farq qiladi (Деревянко 2014: 166). Xitoyning va umuman, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoning ilk paleoliti uchun zarb maydonlarning maxsus tayyorlanmaganligi va makroqurollarga qisman ishlov berish xarakterlidir. Bunday xarakterdagi industriya O‘rta Osiyoda maqola mualliflari tomonidan Selung‘ur g‘ori materiallari misolida kuzatilgan.

Xulosa

A. P. Derevyankoning fikricha, Markaziy Osiyodagi bifasli topilmajoylarda kliverlar umuman uchramaydi (Деревянко 2014: 176). Ammo Selung‘ur g‘or makonida kliverlarning seriyalari uchragan (Анисюткин 2000: 18).

Markaziy Osiyoda bifasial qurollarning paydo bo‘lishini uchta sababini ko‘rsatish mumkin (Деревянко 2006: 46):

1. O‘rta Osiyoning ayrim regionlariga ashel industriyali kam sonli kollektivlarning infiltratsiya qilishi. Industriyalarda birlamchi va ikkilamchi ishlov berishda avtoxton elementlar ustunlik qiladi, migrantlarning kirib kelishi bilan keyinchalik akkulturatsiya jarayonlari sodir bo‘lgan.

2. Avtoxton aholining ashel industriyali aholi bilan madaniy aloqasi natijasida toshlarga bifasial ishlov berish texnologiyalari o‘zlashtirilgan.

3. Bifasial ishlov berilgan qurollarning konvergent tarzda paydo bo‘lishi ehtimolining mavjudligi. Bu yodgorliklarda, mas. Mo‘g‘ulistonda ikki taraflama ishlov berilgan qurollarning yakkam-dukkamligi va kam sonli topilmajoylardan topilganligi bilan o‘z isbotini topadi.

Shunday qilib, Shimoliy Nurota tog‘ tizmasi ilk paleolitning ashelga oid industriyalari sohiblari, ya’ni Afrikadan amalga oshirilgan qadimgi xomo erektuslarning ikkinchi migratsion to‘lqini vakillari tomonidan bundan taxminan 500-400 ming yillar muqaddam o‘zlashtirilgan va bu madaniyat sezilarli o‘zgarishlarsiz 300 minginchi yillargacha hukm surgan, so‘ngra ushbu hududga O‘rta Zarafshon vohasining o‘rta va so‘nggi paleolit davri madaniyatlari kirib kelgan. Hududdan topilgan ashelga oid topilmalar nafaqat Nurota tog‘ tizmasi, balki butun O‘zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi yodgorliklar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Анисюткин Н. К., Исламов У. И., Крахмаль К. А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии / Ответ. ред. Носов Е. Н. // Археологические вести. №7. Ст. Петербург: ИИМК РАН, 2000. С. 12–19.

Амирханов, Х. А. Каменный век Южной Аравии. Москва: Наука. 2006. 693 с.

Величко А. А., Арсланов Х. А., Герасимова С. А., Исламов У. И., Кременецкий К. В., Маркова У. К., Ударцев В. П., Чиколлиани Н. И. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической пещерной стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Докл. Междунар. симп. // СО АН СССР. Новосибирск, ИИФиФ, 1990. С. 76–79.

Гурина Н. Н. Новые данные о древних шахтах по добыче кремня на западе Белоруссии // КСИА АН СССР. Вып. 100. 1965. С. 41–50.

Гурина Н. Н. Древние кремнедобывающие шахты на территории СССР. Ленинград: Наука, 1976. 178 с.

Дадабаев Г. Новое об Иджонтской кремнеобрабатывающей мастерской (по данным работ 1963 г.) / Ответ. ред. Лунин Б. В. // ИМКУ Вып. 6. Ташкент, 1965. С. 40–49.

Деревянко А. П. Миграция, конвергенция, аккультурация в раннем палеолите Евразии // Этнокультурные взаимодействие в Евразии. Москва: Наука, 2006. С. 25–47.

Деревянко А. П. Древнейшие миграции человека в Евразии в раннем палеолите / Ответ. ред. Деревянко А. П., Шуньков М. В. Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2009. 232 с.

Деревянко А. П. Бифасиальная индустрия в Восточной и Юго-Восточной Азии / Ответ. ред. Шуньков М. В. Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2014. 354 с.

Деревянко А. П. Шуньков М. В. Откуда пришел Homo sapiens // «Наука из первых рук». №5/6(65/66). Новосибирск: Изд-во ИАиЭТ СО РАН, 2015. С. 36–55.

Исламов У. И., Крахмаль К. А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Ташкент: Фан, 1995. 220 с.

Тимофеев Д. А. Терминология денурации и склонов / Ответ. ред. Борисевич Д. В. Москва: Наука, 1978. 271 с.

Касымов М. Р. Добыча и техника обработки кремня в каменоломнях-мастерских Средней Азии // Научные работы и сообщения, кн. 3. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961. С. 253–262.

Касымов М. Р. Новые данные о мастерских каменного века в районе Каратау / Ответ. ред. Шишкин В. А. // ИМКУ. Вып. 5. Ташкент, 1964. С. 12–20.

Касымов М. Р. Новые данные о Каратауских кремнеобрабатывающих мастерских каменного века в Бухарской области / Ответ. ред. Лунин Б. В. ИМКУ. Вып. 6. Ташкент: ФАН, 1965. С. 30–39.

Касымов М. Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии / Ответ. ред. Борисковский, П. И. Ташкент: ФАН, 1972. С. 160.

Коробкова Г. Ф., Мирсаатов Т. М. Изучение способов древней добычи кремня методом эксперимента (по материалам Учтутской мастерской) / Ответ. ред. Лунин Б. В. // ИМКУ. Вып. 8. Ташкент: ФАН, 1969. С. 32–37.

Сулейманов Р. Х., Арипджанов О. Ю., Сайфуллаев Б. К., Раджабов А. Ю., Нишиаки Й., Наганума М., Наката Х., Мики Т. Памятники палеолита в Яккабагском районе Кашкадарьинской области и Нуратинском районе Навоийской области / Ответ. ред. Аскаров, А. А. // Археологические исследования в Узбекистане 2013–2014 года. Вып. 10. Самарканд, 2016. С. 299–306.

Pardaev M., Pardaev Sh., Xolboev Z., Xolmatov A., Imomov A., Tursunqulov F., Ro‘ziboev T., Qandaxarov I. Jizzax hududida topilgan yangi paleolit ustaxonasi / Mas`ul redaktor M. Saidov. Markaziy Osiyo tosh davri madaniyatlari chorrahasida. 2023-yil 27-noyabrda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2023. S. 55–62.

Sayfullaev B. K., Ergashev O. T., Raximo, K. A., Rajabov A. Y., Allayorov O‘., Pardaev Sh. M. Jizzax vohasining paleolit davri / Mas`ul redaktor Berdimurodov, A. E. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. Samarqand, 2012. S. 189–194.

Brezillon M. N. La dénomination des objets de pierre taillée. In Archéologie. Paris, 1971. Vol. 24, N 1. P. 127–272.

Movius H. L. Southern and Eastern Asia: Conclusions. Aikawa-Smith F. (ed.). Early Paleolithic in South and East Asia. The Hague: Mouton, 1958. P. 351–355.

Pelegrin J. Les techniques de débitage laminaire au Tardiglaciaire: critères de diagnose et quelques réflexions. Paris, 2000. P. 73–86.

REFERENCES

Anisyutkin N. K., Islamov U. I., Krakhmal’ K. A. 2000. In Nosov E. N. (ed.). *Klivery rannepaleoliticheskoj stoyanki Sel’ungur v Srednej Azii (Cleaver from the early Paleolithic site of Selungur in Central Asia).* In *Arkheologicheskie vesti (Archaeological news).* No 7. St. Peterburg, IIMK RAN Publ., 12–19. (In Russian).

Amirkhanov Kh. A. *Kamennyj vek Yuzhnoj Aravii (Stone Age of South Arabia).* Moscow: Nauka Publ., 2006, 693. (In Russian).

Velichko A. A., Arslanov Kh. A., Gerasimova S. A., Islamov U. I., Kremenetskij K. V., Markova U. K., Udvartsev V. P., Chikovani N. I. 1990. *Stratigrafiya i paleoehkologiya rannepaleoliticheskoj peshhernoj*

stoyanki Selet-Ungur (Stratigraphy and paleoecology of the early paleolithic cave site Sel-Ungur). In *Khronostratigrafiya paleolita Severnoj, Tsentral'noj i Vostochnoj Azii i Ameriki (Chronostratigraphy of the Paleolithic of Northern, Central and Eastern Asia and America)*. Dokl. Mezhdunar. simp. Novosibirsk: Sibirskoe otdelenie Akademii nauk SSSR Publ., 76–79. (In Russian).

Gurina N. N. 1965. *Novye dannye o drevnikh shakhtakh po dobyche kremnya na zapade Belorussii (New data on ancient flint mines in western Belarus).* In *Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii AN SSSR (Brief reports of the Institute of Archaeology of the Academy of Sciences of USSR).* Issue 100. Moscow, 41–50. (In Russian).

Gurina N. N. 1976. *Drevnie kremnedobyvayushhie shakhty na territorii SSSR (Ancient flint mines on the territory of the USSR)*. Leningrad: Nauka Publ., 178. (In Russian).

Dadabaev G. 1965. *Novoe ob Idzhontskoj kremneobrabatyvayushhej masterskoj (po dannym rabot 1963 g.) (New information about the Idzhont flint processing workshop (based on data from 1963).* In Lunin, B. V. (ed.). In *Istoriya material'noj kul'tury Uzbekistana (History of material culture of Uzbekistan)*. Issue 6. Tashkent, 40–49. (In Russian).

Derevyanko A. P. 2006. *Migratsiya, konvergentsiya, akkul'turatsiya v rannem paleolite Evrazii (Migration, convergence, acculturation in the Early Paleolithic of Eurasia).* In *Ehtnokul'turnye vzaimodejstvie v Evrazii (Ethnic and cultural interaction in Eurasia).* Moscow: Nauka Publ., 25–47. (In Russian).

Derevyanko A. P. 2009. In Derevyanko A. P., Shun'kov M. V. (ed.). *Drevnejshie migratsii cheloveka v Evrazii v rannem paleolite (The earliest human migrations in Eurasia in the Early Paleolithic).* Novosibirsk: Institut arkheologii i ehtnografii Sibirskogo otdeleniya Rossijskoj akademii nauk Publ., 232. (In Russian).

Derevyanko A. P. 2014. In Shun'kov M. V. (ed.). *Bifasial'naya industriya v Vostochnoj i YUgo-Vostochnoj Azii (Bifacial Industry in East and Southeast Asia).* Novosibirsk: Institut arkheologii i ehtnografii Sibirskogo otdeleniya Rossijskoj akademii nauk Publ., 354 s. (In Russian).

Derevyanko A. P., Shun'kov M. V. 2015. *Otkuda prishel Homo sapiens (Where did Homo sapiens come from?).* In *Nauka iz pervykh ruk (Science first hand).* №5/6(65/66). Novosibirsk: Institut arkheologii i ehtnografii Sibirskogo otdeleniya Rossijskoj akademii nauk Publ., 36–55. (In Russian).

Islamov U. I., Krakhmal' K. A. 1995. *Paleoehkologiya i sledy drevnejshego cheloveka v Tsentral'noj Azii (Paleoecology and traces of the earliest man in Central Asia).* Tashkent: FAN Publ., 220. (In Russian).

Timofeevб D. A. 1978. In Borisevich D. V. (ed.). *Terminologiya denuratsii i sklonov (Terminology of denoration and slopes)*. Moscow: Nauka Publ., 271. (In Russian).

Kasymov M. R. 1961. *Dobycha i tekhnika obrabotki kremnya v kamenolomnyakh-masterskikh Srednej Azii (Dobycha i tekhnika obrabotki kremnya v kamenolomnyakh-masterskikh Srednej Azii).* In *Nauchnye raboty i soobshheniya (Scientific papers and reports).* Kn. 3. Tashkent: Academy of Sciences of USSR Publ, 253–262. (In Russian).

Kasymov M. R. 1964. In Shishkin, V. A. (ed.). *Novye dannye o masterskikh kamennogo veka v rajone Karatau (New data on Stone Age workshops in the Karatau region).* In *Istoriya material'noj kul'tury Uzbekistana (History of material culture of Uzbekistan).* Issue 5. Tashkent, 12–20. (In Russian).

Kasymov M. R. 1965. In Lunin B. V. (ed.). *Novye dannye o Karatauskikh kremneobrabatyvayushhikh masterskikh kamennogo veka v Bukharskoj oblasti (New data on Karatau flint-working workshops of the Stone Age in the Bukhara region).* In *Istoriya material'noj kul'tury Uzbekistana (History of material culture of Uzbekistan).* Issue 6. Tashkent: FAN Publ., 30–39. (In Russian).

Kasymov M. R. 1972. In Boriskovskij P. I. (ed.). *Kremneobrabatyvayushhie masterskie i shakhty kamennogo veka Srednej Azii (Flint-working workshops and mines of the Stone Age of Central Asia).* Tashkent: FAN Publ., 160. (In Russian).

Korobkova G. F., Mirsaatov T. M. 1969. In Lunin, B. V. (ed.). *Izuchenie sposobov drevnej dobychi kremnya metodom ehksperimenta (po materialam Uchtutskoj masterskoj) (Study of ancient silicon mining methods by experimental method (based on materials of Uchtutskaya workshop)*. In *Istoriya material'noj kul'tury Uzbekistana (History of material culture of Uzbekistan).* Issue 8. Tashkent: FAN Publ., 32–37. (In Russian).

Sulejmanov R. Kh., Aripdzhanov O. Yu., Sajfullaev B. K., Radzhabov A. Yu., Nishiaki J., Naganuma M., Nakata Kh., Miki T. 2016. In Askarov A. A. (ed.). *Pamyatniki paleolita v Yakkabagskom rajone Kash-*

kadar’inskoj oblasti i Nuratinskom rajone Navoijskoj oblasti (Pamyatniki paleolita v Yakkabagskom rajone Kashkadar’inskoj oblasti i Nuratinskom rajone Navoijskoj oblasti). In *Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2013–2014 goda (Arkheologicheskie issledovaniya v Uzbekistane 2013–2014 goda).* Issue 10. Samarkand, 299–306. (In Russian).

Pardaev M., Pardaev Sh., Xolboev Z., Xolmatov A., Imomov A., Tursunqulov F., Ro‘ziboev T., Qandaxarov I. 2023. In Saidov M. (ed.). Jizzax hududida topilgan yangi paleolit ustaxonasi (New Paleolithic workshop discovered in Jizzakh region). *Markaziy Osiyo tosh davri madaniyatlari chorrahasida. 2023-yil 27-noyabrda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi materiallari (Markaziy Osiyo tosh davri madaniyatlari chorrahasida. 2023-yil 27-noyabrda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyasi materiallari)*. Samarqand, 55–62. (In Uzbek).

Sayfullaev B. K., Ergashev O. T., Raximov K. A., Rajabov A. Y., Allayorov O‘., Pardaev Sh. M. 2012. In Berdimurodov A. E. (ed.). *Jizzax vohasining paleolit davri (Paleolithic period of the Jizzakh oasis).* In *O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar (Archaeological research in Uzbekistan).* Samarqand, 189–194. (In Uzbek).

Brezillon M. N. 1971. *La dénomination des objets de pierre taillée (The naming of cut stone objects).* In *Archéologie (Archeology)*. Vol. 24, N 1. Paris, 127–272.

Movius H. L. 1958. In Aikawa-Smith F. (ed.). *Southern and Eastern Asia: Conclusions. Early Paleolithic in South and East Asia.* The Hague: Mouton Publ., 351–355. (In English).

Pelegrin J. 2000. *Les techniques de débitage laminaire au Tardiglaciaire: critères de diagnose et quelques réflexions (Laminar debitage techniques in the Late Glacial: diagnostic criteria and some reflections).* Paris, 73–86. (In French).

PALAEOLITHIC SITES OF THE NORTHERN NURATA MOUNTAIN RANGE

© 2024. Baxtiyor Sayfullaev[1], Odil Ergashev[2], Aziz Imomov[1], Alisher Rajabov[1], Laziz Ungalov[2], Ruziboy Abduraimov[2]

[1]Samarkand Institute of Archaeology named after Y.G. Gulyamov,
[2]Samarkand State University named after Sh.R. Rashidov

Key words: Palaeolithic, biface, Aschelian, scrabble, Levallois detachment, nucleus.

The article is devoted to the technical-typological study of ancient Stone Age finds discovered in the territory of Pangat and Mirishkor villages of the Koshrabat district in the western part of the Nurata mountain range. The Nurata Mountains, with their favorable palaeoecological conditions, have attracted the attention of primitive populations since the early Palaeolithic period. Locations representing all stages of the development of the Old Stone Age have been identified in the region. The archaeological materials collected here consist of stone products worked by ancient people, which are divided into four complexes according to their working techniques and degree of preservation. These artefacts were made from local flinty limestones, sandstones and slates. The first complex includes bifaces, choppings, nuclei and a Levallois detachment. These items are among the oldest in Central Asia, belonging to the Ashelian industries and can be dated to about 500–400 thousand years BC. Among the materials of the second complex are also presented bifaces and choppers, which represent the Ashelian industry and can be dated approximately to 350–300 thousand years B.C. The third complex, discussed here is attributed to the Middle, and artefacts of the fourth complex to the Late Palaeolithic epoch. The study of Old Stone Age monuments in the northern part of the Nurata Range reveals great prospects for understanding a distinct culture in this region. Based on the available stone tools, it can be concluded that this area was inhabited by the second migration flow of Homo erectus from the African continent.